

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

**INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING LUG`AT BOYLIGINI OSHIRISH  
NAZARIYASI**

**Shirinova Venera Gafurovna**

*Toshkent shahar Yashnobod tumani 145-sen umumta'lim maktabi  
Ingliz tili fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar, o'quvchilarning lug`at boyligini oshirishda qo'llaniladigan metodlar haqida so`z borgan. Ingliz tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrleshga o"rgatish oldimizda turgan muhim vazifadir. Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida o"quvchi subyekt bo"lishi lozim. Darslarga qo'yilgan eng muhim talablardan biri o"quvchini mustaqil fikrleshga orgatishdir.*

**Kalit so`zlar:** *Ingliz tili, dars, interfaol usullar, o'quvchi, lug`at boyligi, metodlar, so`z, ta'lim tizimi.*

Yurtimiz mustaqillik yillarda buyuk o`zgarishlar tomon yuz tutdi. Bu ayniqsa ta`lim tizimida yaqqol ko`rinadi. Chunki ta`lim tizimi o`z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo`yadi. Buning uchun biz o'qituvchilar dars davomida yangicha usullardan samarali foydalanishimiz lozim. Jahondagi rivojlangan davlatlarning tajribasi ilg`or pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda o'quvchi yoshlarning bilim olishiga bo'lган qiziqish va ehtiyojlarini qondiribgina qolmasdan, yuqori malakali mutaxassislar yetishtirishtirib berish vazifalarini ham hal qilmoqda.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intelektual va ma'naviy - ahloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lган uzlusiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shahs – fuqaroni shakillantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etishdir. —Ta'lim to'g'risidagi Qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablariga binoan darslarni an'anaviy tarzda emas, noan'anaviy tarzda tashkil etishimiz lozim bo'ladi. Buning uchun biz o'qituvchilar ko'p izlanishimiz kerak Jahon tillari orasida ingliz tili o`ziga xos mavqega ega. Ushbu xalqaro til Dunyo miqyosida muloqot vositasiga aylangan, hozirda yer yuzining barcha mintaqalarida inglizcha nutq yangramoqda. U rivojlangan mamlakatlar - Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Avstraliya kabi mamlakatlarda davlat tili maqomini olgan. Vatanimizda ham ingliz tilini o`rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Bizning bobokalonlarimiz chet tillarni puxta bilganlar va ilm-fan, madaniyat tarixida olamshumul kashfiyotlar yaratishgan.

Biz yoshlarni avlodlarimiz ruhiga munosib bo'lган holda, chet tillarni puxta egallashga o'rgatishimiz lozim. Ingliz tilida erkin so`zlashish uchun o'quvchining lug`at boyligini oshirish lozim. Bu vazifani hal qilishda har xil o`yinlardan foydalanish ijobiy natija beradi. O`yinlar orqali so`zlar o'rgatilsa o'quvchilar yangi so`zlarni tez ilg`ab

**5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR**

olishadi va bu so`zlar ularning xotirasida bir umrga qoladi. Bunday o`yinlar butun sinf bilan, yoki kichik-kichik guruhlarga bo`lingan holda o`rgatilishi mumkin. Keling, o`qituvchilar yangi so`zlarni o`rgatayotganlarida qanday uyinlardan foydalanishlari mumkinligini ko`rib chiqaylik:

1. Xotirani mustahkamlovchi o`yin (Memory game) Bir o`quvchi bitta gap aytadi boshqa o`quvchi shu gapga bir so`z yoki gap qo`shti:

1-o`quvchi: My friend came.

2-o`quvchi: My friend and his mother came.

3-o`quvchi: My friend and his mother came by train.

Qaysi o`quvchi so`z qo`scha olmasa yoki xatoga yo`l qo`ysa o`yinni tark etadi.

2. So`z bog`liqligi o`yini (Word association) Bir sinf turkumiga oid so`zlar olinadi. Masalan:

Uy jihozlari jihozlariga oid so`zlar.

1-o`quvchi: a Sofa.

2-o`quvchi: a table.

3-o`quvchi: a chair.

4-o`quvchi: the piano.

Qaysi o`quvchi tezda so`z topa olmasa o`yinni tark etadi.

3. Mimika (Miming) Bu o`yin yuqori sinf o`quvchilari uchun mo`ljallangan bo`lib, o`quvchilar ko`p so`zlarni bilishlari ya`ni lug`atlari boy bo`lishi kerak. Bu uyin kasbga oid bo`lishi mumkin. Boshlovchi biror kasb egasiga doir harakat qilib ko`rsatadi, qolganlar bu so`z qaysi kasbga oid ekanligini topishlari kerak, aks holda ular savol berishlari mumkin:

Dou you work with children? Do you work in the evening?

4. Kasbga oid ish qurollari haqidagi o`yin (Guess the tool) O`qituvchi o`quvchilarni juftlikka ajratadi. Ikki o`quvchini yuzma yuz qilib ularga so`zlar yozilgan kartochkalarni beradi.

Masalan: Knife and cook, pen and pupil. Bu o`quvchilar yozuvni bir biriga ko`rsatmasligi kerak. O`quvchilar kartochkadagi ish qurolining nomini aytmasdan, o`sha so`zni tasvirlashlari shart. Boshqasi o`sha ish qurolini topishi kerak:

1-o`quvchi: It is used for cutting things (bread, vegetables).

2-o`quvchi: It is a knife. We use it to prepare meals.

5. Kishilar ovozlari orqali so`z topish (Human sounds) Bu uyinda o`quvchilar kishilar xursand bo`lganda, xafa bo`lganda, kasal bo`lganda qanaqa ovoz chiqarishini o`rganadilar. O`qituvchi: You are at the concert, at the stage.

O`quvchi: Sings and says I am singing.

O`qituvchi: Someone is here... O`quvchi: Whispers some thing and says I am whispering.

O`qituvchi: You hurt your leg.

O`quvchi: Screams and says I am screaming.

O`yin oxirida o`quvchilar o`zlari xuddi shunday harakatlar topib, aytishlari va ijro qilishlari mumkin.

6. **Maslahat zanjiri o`yini** (Suggestion chain) Bu o`yinda o`quvchilar bo`sh vaqtini o`tkazish uchun taklif kiritishadi. Buning uchun ularning har biri bugun kechqurun yoki ertaga tushdan keyin yoki bo`lmasa dam olish kunlarini qog`ozga yozib oladilar, keyin birortasi o`yinni boshlashadi boshqa o`quvchilar ham o`z fikrlarini bildirishadi:

1-o`quvchi: Let`s go to the football match.

2-o`quvchi: No, not football. What about going to the concert?

3-o`quvchi: We could go to the concert.

4-o`quvchi: No, not to the concert.

Why don't we visit to the country? O`yin shu tartibda davom ettiriladi. Hamma o`quvchilar o`z takliflarini aytib bo`lishlari shart. Kim taklifini to`g`ri ayta olmasa yoki gapda oldin aytilgan fe'l takrorlansa uyindan chiqadi.

7. **Ogohlantirish, bildirish iboralariga oid o`yin** (Notices and warming practices) O`qituvchi ikki turdag'i kartochkalarni tayyorlaydi. Birinchi turdag'i kartochkalarda ba`zi joylarda aytildigan iboralar va gaplar yoziladi. Ikkinci tur-kartochkalarda esa shu gaplar va iboralar aytish mumkin bo`lgan joylar ko`rsatiladi.

Masalan:

1-o`quvchi: Many students are reading books.

2-o`quvchi: In the library.

3-o`quvchi: Tickets are sold out.

4-o`quvchi: Out side the theatre.

5-o`quvchi: Queue for currency exchange.

6-o`quvchi: Inside a bank.

8. **Mantiqni kuchaytirish uchun ishlatiladigan o`yin** (Exaggerate) Bu usul o`quvchilarga turli sifatlarni tanlash imkonini beradi. Buning uchun o`qituvchi har xil tipdag'i savollar yozilgan kartochkalarni tayyorlab qo`yadi: It isn't very interesting, is it? She is very pretty, isn't she? Did you have a good day? Kartochkalar stol ustiga qo`yiladi. O`qituvchi o`quvchilardan birini chaqirib, kartochkalarning birini olib, savolini o`qishini buyuradi. Bu o`quvchi boshqa o`quvchidan sifatlarni ishlatgan holda savolga javob berishini so`raydi.

1-o`quvchi: She cooked nice meals, didn't she? Azim?

2-o`quvchi: (Azim) Nice? She cooked delicious. Kim sifatlardan o`rinli foydalana olmasa yoki xatoga yo`l qo`ysa yutqazgan hisoblanadi.

9. **Gaplarni kengaytirish uchun ishlatiladigan o`yin** (Expand the sentences) Bu o`yin ham sifatlarga taalluqli bo`lib, gaplarda bir necha sifatlar ishlatilishi lozim: O`qituvchi: He ate an apple.

1-o`quvchi: He ate a red apple.

2-o`quvchi: He ate a red big apple.

**5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR**

Bu turdag'i o'yinlar hamma yoshdagi o'quvchilar, o'quvchilarga ingliz tili so'z boyliklarini oshirishga yordam beradi. Ingliz tili o'qituvchilari ingliz tili o'r ganuvchilarining yosh xususiyatlari va bilim darajalarini hisobga olgan holda o'yin shartlarini oson yoki murakkablashtirishlari mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish joizki bu o'yinlarni bolalarning saviyasi yoki yoshiga qarab osonlashtirish yoki qiyinlashtirishimiz ham mumkin. Ushbu interfaol o'yinlarning maqsadi turlicha bo'lib bu o'yinlar orqali diqqatni jamlash, so'z boyligini oshirish, tezkorlik, aqlilik, ziyrak asosiysi esa darsni qiziqarli tarzda o'zlashtirib, yodda saqlab qolishimiz mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mahmudova —Pedagogika o'quv darsligi.
2. [www.englishclub.com/esl-activities](http://www.englishclub.com/esl-activities)
3. [www.eslgamesworld.com/ClassroomGames.html](http://www.eslgamesworld.com/ClassroomGames.html)